

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/28.08.2020.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

BABAJanov JAVOHIR Fayzulla o'g'li

**MINTAQADA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in economic sciences**

Babajanov Javohir Fayzulla o'g'li

Mintaqada kichik biznesni rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirish dasturlarini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida)3

Бабажанов Жавохир Файзулла угли

Совершенствование программ сокращения бедности на основе развития малого бизнеса в регионе (на примере Хорезмской области).....29

Babajanov Javakhir Fayzulla ogli

Improvement of poverty reduction programs based on the development of small businesses in the region (on the example of the Khorezm region).....57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works61

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/28.08.2020.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

BABAJanov JAVOHIR Fayzulla o'g'li

**MINTAQADA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Urganch - 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3392 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Baxtiyar Ruzmetov

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Abdurashid Madjitovich,

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Eshimbetov O'ktamjon Kudayberganovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/28.08.2020.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "___" _____ soat ___:___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14 uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14 uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d. professor.

T.J.Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD.

U.R.Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., (DSc) dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kichik biznesni rivojlantirish kambag'allikni qisqartirishda juda zarur hisoblanib, aholi bandligini ta'minlash, turmush faravonligi va daromad darajasini oshirishda juda muhimligiga e'tibor qaratilmoqda. Jahon banking ma'lumotlariga ko'ra, "dunyo miqyosida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ma'lum bir o'sishlarga erishilganiga qaramay, mutloq kambag'allikda yashovchi insonlarning umumiy soni yuqoriligicha qolmoqda. 2,15 AQSh dollar yoki undan kam daromadga ega bo'lgan aholi qatlami kambag'al sifatida tasniflanishini xisobga olsak, hozirgi kunda dunyo bo'yicha kambag'allikda yashovchi aholining umumiy soni 700 millionni tashkil etadi"¹.

Jahon iqtisodiyotida "hozirgi vaqtda dunyodagi 90,0 foiz korxonalar kichik va o'rta biznesga tegishli bo'lib, ular jahon aholisining 63,0 foizini ish bilan ta'minlamoqda. Yevropa Ittifoqida kichik va o'rta biznesning nomoliyaviy korxonalaridagi umumiy salmog'i 99,8 foizni tashkil etgan holda aholining uchdan ikki qismini ish bilan ta'minlamoqda". Jahonda kichik biznesni rivojlantirishning kambag'allikni qisqartirishdagi rolini oshirish, bu yuzadan muvaffaqiyatli strategiya ishlab chiqish, hamda xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasida mamlakatni jahonda rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish ko'zda tutilgan. Strategiyaning 21-maqсадida "Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratildi", deb ta'kidlangan².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida "...Xalqimizning turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag'allik ikki barobarga kamaydi. Biz 2030-yilgacha uni 7 foizga tushirishni reja qilganmiz. Aholini ichimlik suvi, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash ko'lamini bir necha bor oshirishni belgilaganmiz."³ deb ta'kidladilar. Binobarin, "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"⁴ qarorda belgilangan ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini oshirish, kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning daromadini oshirish va turmush sharoitini yaxshilash, tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish hamda aholi ehtiyojmand qatlamining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatlarini

¹ <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/overview>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5841063>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqidan. /20.09.2023/<https://president.uz/oz/lists/view/6677>

⁴ O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 4 yillik strategiya ishlab chiqilmoqda "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori loyihasi e'lon qilindi. <https://yuz.uz/news/ozbekistonda-kambag'allikni-qisqartirish-boyicha-4-yillik-strategiya-ishlab-chiqilmoqda>

kengaytirish, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan vazifalarini belgilanganligi mazkur tadqiqotning dolzarb masalaga qaratilganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 3-dekabrda PF-29-son "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida", 2022-yil 25-iyuldagi PF-175-son "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 29-apreldagi PQ-230-son "Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi PQ-4653-son "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 154-son "2022-2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish masalalari ko'plab xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan: xorijiy olimlardan A.Sen, R.Adams, M.Ravallion, S.Chen, S.P.Jenkins, J.Micklewright, D.Dollar, A.Kraay, Shi Li, Luo Ghuliang, H.Bhanumurthy, H.Mitra, C.Arndt, R.C.James, Kenneth R.Simler, Bo Q.Lin, J.Foster, J.Greer, E. Thorbeckes va boshqalarning ilmiy ishlarida mazkur masalalar qarab chiqiladi.

⁵ Sen, A. (2000). A Decade of Human Development. *Journal of Human Development*, 1(1), 17–23. <https://doi.org/10.1080/14649880050008746>// Adams, R (2002) Economic Growth, Inequality and Poverty: Findings from a New Data Set, Policy Research Working Paper 2972, // World Bank, February 2002, M Ravallion and S Chen (1997) 'What Can New Survey Data Tell Us about Recent Changes in Distribution and Poverty?' *World Bank Economic Review*, 11(2): 357-82.,// M.Ravallion (2007), Inequality is Bad for the Poor, // Chapter 2 in *Inequality and Poverty Re-examined*, S.P. Jenkins and J.Micklewright, Oxford., Chen and Ravallion (1997), "Trade, Growth and Poverty" D.Dollar and A.Kraay (2001), (Ravallion, 2004, 2007),// Shi Li, and Luo Ghuliang, (2008). "Growth Pattern, Employment, and Income Inequality: What the Experience of Republic of Korea and Taipie, China Reveals to the People's Republic of China", *Asian Development Review*, 25(1 and 2), pp. 100-118.// H.Bhanumurthy and H.Mitra (2004), Economic Growth, Poverty, and Inequality in Indian States in the Pre-reform and Reform Periods, *Asian Development Review*, vol. 21, no. 2, 2004, pp. 79-99// C.Arndt, R.C.James, and Kenneth R.Simler (2006), Has Economic Growth in Mozambique Been Pro-Poor?, *Food Consumption and Nutrition Division Discussion Paper 202*.// Lin (2003), Economic Growth, Income Inequality, and Poverty Reduction in People's Republic of China, *Asian Development Review*, vol. 20, no. 2, 2003, pp. 105-24.// James Foster; Joel Greer; Erik Thorbecke (28 May 2010). "The Foster–Greer–Thorbecke (FGT) poverty measures: 25 years later". *The Journal of Economic Inequality*. 8 (4): 491–524.

MDH davlatlari olimlaridan E.E.Rumyanseva, N.V.Kovalenko, N.E.Tixonova, T.S.Karabchuk, T.R.Pashinova, N.E.Soboleva, O.V.Garashuk, V.I.Kusenko, V.B. Toreev, A.V. Ovchinnikovalar ham bu borada bir qancha tadqiqot va izlanishlar olib borishgan⁶.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan M.Q.Pardaev, O.M.Pardaev, I.O.Yakubov, H.A Hakimovlarning ilmiy izlanishlarida mintaqaviy iqtisodiyotni zamonaviy muammolari o'rganilgan bo'lsa, mamlakatimiz iqtisodiyotida, xususan kichik biznesni rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari hamda rivojlanish tendensiyalari S.S.G'ulomov, T.Do'stjonov, S.K.Salayev, M.R.Boltabaev, M.S.Qosimova, Sh.J.Ergashxodjayeva, B.K.G'oyibnazarov, A.N.Samadov, Sh.I.Otajonov⁷ va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Ammo, ushbu tadqiqotlarda aynan kichik biznesni kambag'allikni qisqartirishga ta'siri va imkoniyatlari to'la tadqiq etilmaganligi mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch Davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Mintaqada kichik biznesni rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirish dasturlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kambag'allikni kichik biznesni rivojlantirish asosida qisqartirishni hududlar kesimidagi konseptual yondashuvlarini asoslash;

kambag'allikni qisqartirishning kichik biznesni davlat, tarmoq, hududiy dasturlari asosida amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganish;

mintaqada ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, mahalliy tashabbuskorlikni yaxshilash asosida kambag'allikni qisqartirish modellarini ishlab chiqish;

Xorazm viloyatida kambag'allikni qisqartirish omillarini tahlil qilish;

Kichik biznes strategik zonalari, kovorking markazlari tashkil qilish asosida kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish;

⁶ Румянцев Е.Е., Новая экономическая энциклопедия. М., Инфра-М. 2005, с. 35., Kovalenko N.V Poverty as a socio-economic category. State building. 2007. № 2. Тихонова Н.Е. Феномен городской бедности в современной России. М.: Летний сад, 2003; Карабчук Т.С., Пашинова Т.Р., Соболева Н.Э. Бедность домохозяйств в России: что говорят данные РМЭЗ ВШЭ // Мир России. 2013 Т. 22. № 1 и др. Гарашук О. В., Куценко В. И. Контент фахової освіти: аналіз, оцінка, перспективи. Економічний аналіз: зб. наук. праць. Тернопіль: «Економічна думка». 2016. Том 24. № 1. С. 7–15.// Тореев В.Б. Особенности развития малого бизнеса России: Монография. - М.: ИСЭПН РАН, 2006. – 256 с.// Овчинникова А.В. Роль и функции малых предприятий промышленности в экономическом системном комплексе // Известия УрГЭУ, 2014. № 1 (51).

⁷ M.Q.Pardaev, O.M.Pardaev. Kambag'allikni baholash va uni kamaytirish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. – Samarqand: SamISI, 2020. - 6 b. // I.O.Yakubov, H.A Hakimov, "Mintaqaviy iqtisodiyot". O'quv-uslubiy majmua. T.: TDIU, 2016-yil.// S.S.G'ulomov. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002. – 365 b.; // Do'stjanov T., Salayev S. Kichik biznesning katta imkoniyatlari.- Urganch.: Xorazm, 1997. – 129 b.//Boltabaev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J., G'oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Otajonov Sh.I. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2012. – 274 b.

O'rta va uzoq muddatda Xorazm viloyatida kichik biznesni rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqot obyekti sifatida, Xorazm viloyati kambag'allikni qisqartirish muassasalari va iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes subyektlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Xorazm viloyatida kichik biznesni rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada maqsadli rejalashtirish, statistik guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil, ekonometrik modellashtirish, ekspert baholash, prognozlash usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kambag'allikni birinchi (Urganch shahri 2022-yilda 17,4 foizdan 2023-yilda 12,1 foizgacha), ikkinchi (Bog'ot 19,6 foizdan 14,1 foizgacha), uchinchi (Gurlan 23,3 foizdan 16,9 foizgacha, Tuproqqal'a 18,1 foizdan 13,0 foizgacha, Urganch 26,5 foizdan 19,5 foizgacha, Hazorasp 14,3 foizdan 10,3 foizgacha, Xiva shahri 9,8 foizdan 7,2 foizgacha, Xonqa 14,5 foizdan 10,5 foizgacha), to'rtinchi (Qo'shko'pir 20,3 foizdan 14,7 foizgacha, Xiva 20,3 foizdan 14,7 foizgacha, Yangibozor 25,4 foizdan 18,3 foizgacha) va beshinchi (Yangiariq 21,6 foizdan 15,6 foizgacha) toifalardagi tumanlar kesimida qisqartirishni konseptual yondashuvlari taklif etilgan;

mintaqada kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha davlat, tarmoq, hududiy dasturlarini ishlab chiqish, ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, mahalliy tashabbuskorlikni yaxshilash asosida kambag'allikni qisqartirish modellari ishlab chiqilgan;

mintaqada kichik biznesni rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirish dasturida strategik zonalar (Tuproqqal'a, Hazorasp, Gurlan, Qo'shko'pir), kovorking markazlari (Urganch shahri, Xiva shahri, Urganch, Xiva) va mahallalarni ixtisoslashuvi (Yangiariq, Yangibozor, Shovot, Xonqa, Bog'ot) asosida mikromarkazlarni tashkil qilish taklifi asoslangan;

Xorazm viloyatida ko'p omilli ekonometrik modellar tuzish hisobiga yalpi hududiy mahsulotni o'sish darajasi, kambag'allikni qisqartirish ko'rsatkichlarini 2023-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Xorazm viloyatining shahar va tumanlarini rivojlantirish darajasidagi hududlararo tabaqalashuvi kesimida kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan kichik biznesni ustuvor yo'nalishlari aniqlangan;

mintaqada kichik biznesni rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirish maqsadida kichik biznes strategik zonalari, kavorking markazlari, monomarkazlarni tashkil qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

mintaqada kichik biznesni rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirish dasturini ishlab chiqish tashkiliy-iqtisodiy modeli ishlab chiqilgan;

Xorazm viloyatida kambag'allikni qisqartirish darajasini o'rganish smart markazining elektron platformasini yaratish taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan yondashuv va usullarni maqsadga muvofiqligi, rasmiy statistik manbalar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Xorazm viloyat hokimligining statistik ma‘lumotlaridan olinganligi, keltirilgan tahlillar matematik va ekonometrik usullar orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining mas‘ul tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan mintaqada kichik biznesni rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini takomillashtirish natijasida davlat, tarmoq va mahalliy rivojlanish dasturlari, strategiya va konsepsiyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari, hokimliklar, hududlardagi kichik korxonalar va tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, mintaqada kambag‘allikni qisqartirish maqsadli dasturlarini shakllantirish, oliy o‘quv yurtlari o‘quv jarayonida keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqada kichik biznesni rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kambag‘allikni birinchi (Urganch shahri 2022-yilda 17,4 foizdan 2023-yilda 12,1 foizgacha), ikkinchi (Bog‘ot 19,6 foizdan 14,1 foizgacha), uchinchi (Gurlan 23,3 foizdan 16,9 foizgacha, Tuproqqal’a 18,1 foizdan 13,0 foizgacha, Urganch 26,5 foizdan 19,5 foizgacha, Hazorasp 14,3 foizdan 10,3 foizgacha, Xiva shahri 9,8 foizdan 7,2 foizgacha, Xonqa 14,5 foizdan 10,5 foizgacha), to‘rtinchi (Qo‘shko‘pir 20,3 foizdan 14,7 foizgacha, Xiva 20,3 foizdan 14,7 foizgacha, Yangibozor 25,4 foizdan 18,3 foizgacha) va beshinchi (Yangiariq 21,6 foizdan 15,6 foizgacha) toifalardagi tumanlar kesimida qisqartirishni konseptual yondashuvlari bo‘yicha taklif Xorazm viloyati hokimligining 2023-yil 26-iyundagi “Viloyatda kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 207-12-0-Q/23-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati hokimligining 2023-yil 07-noyabrdagi 7-3595-son ma‘lumotnomasi). Natijada, shahar va tumanlarda kambag‘allikni qisqartirishga erishilib, ushbu hududlarni yuqori toifaga o‘tkazish imkoniyatlari asoslangan;

mintaqada kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha davlat, tarmoq, hududiy dasturlarini ishlab chiqish, ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, mahalliy tashabbuskorlikni yaxshilash asosida kambag‘allikni qisqartirish modellari bo‘yicha taklif Xorazm viloyati hokimining 2023-yil 4-fevraldagi “Xorazm viloyatida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 37-12-0-Q/23-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati hokimligining 2023-yil 07-noyabrdagi 7-3595-son

ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi viloyatining 2023-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi doirasida 6,2 trln, so'mlik 528 ta investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini bergan;

mintaqada kichik biznesni rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirish dasturida strategik zonalar (Tuproqqal'a, Hazorasp, Gurlan, Qo'shko'pir), kovorking markazlari (Urganch shahri, Xiva shahri, Urganch, Xiva) va mahallalarni ixtisoslashuvi (Yangiariq, Yangibozor, Shovot, Xonqa, Bog'ot) asosida mikromarkazlarni tashkil qilish bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimining 2023-yil 5-maydagi "Xorazm viloyatida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 146-12-0-Q/23-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati hokimligining 2023-yil 07-noyabrdagi 7-3595- son ma'lumotnomasi). Natijada, "Temir daftar"ga kiritilgan 80,4 ming nafar "Ayollar daftari"ga kiritilgan, 75,8 ming nafar "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 66,6 ming nafar fuqaro daftarlardan chiqarildi;

Xorazm viloyatida ko'p omilli ekonometrik modellarni tuzish hisobiga yalpi hududiy mahsulotini o'sish darajasi, kambag'allikni qisqartirish ko'rsatkichlarini 2023-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimining 2022-yil 12-apreldagi "2022-2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 58-12-0-Q/22-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati hokimligining 2023-yil 07-noyabrdagi 7-3595-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2027-yilga kelib, YAHM hajmi 1,4 barobarga oshganligi va kambag'allik darajasi 50 foizga kamayishi prognoz qilinib, Xorazm viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasini oldindan aniqlash va samarali rejalashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarga asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta mahalliy va 1 ta xalqaro jurnalda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 141 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti shakllantirilgan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot

natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi hamda nashr etilgan ishlar va Dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mintaqada kambag'allikni qisqartirish dasturini ishlab chiqish nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiyotda kambag'allik tushunchasi, uni qisqartirish omillari va usullari, kambag'allikni kichik biznesni rivojlantirish asosida qisqartirish dasturini baholash va rivojlangan mamlakatlarda kambag'allikni qisqartirish tajribasi tahlil qilingan.

Tahlillarimizga ko'ra, kambag'allik bu murakkab tushuncha bo'lib, tarixan shartli va ko'p omilli masala hisoblanadi. Jahon bank tarifiga asosan, kambag'allik - daromad va iste'mol darajasining pastligi, to'yib ovqatlanmaslik sababli sog'lig'ining yomonlashuvi, ta'lim berish darajasining pastligi yoki umuman yo'qligi, “nochorlik”, saylov huquqining yo'qligi, inson huquqlarining qonun bilan himoyalangan va qo'rquv ostida yashayotgan shaxsning (aholi qismining) holatidir⁸.

Dissertatsiyada XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy siyosatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan kambag'allikning muqobil nazariyalari ishlab chiqildi. Shulardan, Leyden ta'rifiga ko'ra, kambag'allik chegarasi regressiya usulida, ya'ni shaxs tomonidan real va talab qilinadigan daromadlar kesishish nuqtasi yordamida aniqlanadi. Agar real daromad ushbu chiziqdan past bo'lsa, u holda shaxs kambag'al hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon amaliyoti kambag'allikni aniqlashda uchta asosiy yondashuvni qo'llamoqda:

- mutlaq kambag'allik. Bu tushuncha kambag'allik chegarasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u shaxs ixtiyoridagi daromad, yalpi daromad yoki iste'mol darajasiga qarab belgilanadi, undan past daromadli kishi kambag'al hisoblanadi. Mutlaq kambag'allik ko'pincha miqdoriy jihatdan o'lchanadi. Unda iste'mol darajasi yoki daromadi kambag'allik chegarasidan past bo'lgan kishilar yoki oilalari soni hisobga olinadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, kuniga 2,15 AQSh dollaridan kam bo'lgan kunlik daromadga ega shaxslar mutlaq kambag'al hisoblanadi(xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblangan almashuv kursi bo'yicha)⁹.

- nisbiy kambag'allik jamiyatda qabul qilingan aholi turmush darajasini saqlab qola olmaslik bilan belgilanadi. Nisbiy kambag'allik insonni boshqa kishilarga nisbatan qanchalik kambag'al ekanligingizni ko'rsatadi. Bu degani har qanday jamiyatda ijtimoiy tengsizlik mavjud bo'lar ekan kambag'allar ham bo'ladi. Nisbiy kambag'allik chegarasini aniqlashda o'rtacha shaxsiy daromad ko'rsatkichi qo'llaniladi. AQShda nisbiy kambag'allik chegarasi ushbu ko'rsatkichning 40 foizi to'g'ri keladi, aksariyat Yevropa mamlakatlarida esa bu ko'rsatkich 50-60 foizni tashkil qiladi.

- subyektiv kambag'allik tushunchasi faqat shaxsning o'zi kambag'al yoki kambag'al emasligini aniqlashi mumkin degan g'oyaga asoslanadi. Subyektiv kambag'allik darajasini aniqlashning ko'plab yondashuvlari mavjud. Masalan, oddiygina savol yordamida qancha kishi o'zini kambag'al deb bilishi yoki yaqinlarini kambag'al deb hisoblash mumkin. Subyektiv mutlaq kambag'allik chegarasini

⁸ Manba: Румянцев Е.Е.. Новая экономическая энциклопедия. М., Инфра-М. 2005, с. 35.

⁹ Manba: <https://data.worldbank.org/country/uzbekistan?view=chart>

jamoatchilik fikridan kelib chiqqan holda aniqlash, keyin esa bu ko'rsatkichni aholi daromadlari bilan solishtirish mumkin.

Shuningdek, xalqaro kambag'allik chegarasi jahon banki tomonidan xalqaro taqqoslash uchun ishlatiladi. Mutlaq kambag'allik chegarasi xarid qobiliyati pariteti bo'yicha kuniga 2,15 AQSH dollari miqdorida belgilanadi¹⁰. Hozirgi vaqtda dunyodagi eng kambag'al 15 ta mamlakat ushbu kambag'allik ko'rsatkichlaridan foydalanadi. Biroq, hozirgi vaqtda turli mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda kambag'allikning boshqa chegaralari ham qo'llaniladi. Xususan, daromadi o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lgan davlatlar uchun kambag'allik darajasi kuniga 2,15 AQSH dollar, daromadi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar uchun esa kuniga 4,30 AQSH dollarlik ko'rsatkichlarni qo'llash tavsiya etiladi¹¹.

2023-yilning 25-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida "Kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash masalalari"ga bag'ishlab o'tkazilgan videosektor yig'ilishida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish jarayonlari yuqori samaradorlikni namoyish etayotganini ta'kidladi.

Dissertatsiyada kambag'allikni aniqlashning monetar va nomonetar jihatlarini o'z ichiga oluvchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Bu ko'rsatkichlar kambag'allikning eng keng tarqalgan ko'rsatkichlari bo'lib, ular oilalarining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar yoki ularning iste'mol xarajatlari smetasi asosida hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval.

Kambag'allikni aniqlash usullari¹²

Bir o' Ichovli tahlil	monetar ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda	Daromad	Mutlaq kambag'allik chegarasi	Alohida mamlakatlar uchun mahalliy chegaralar milliy valyutada	Asosiy ehtiyojlar uchun xarajatlar	
					Minimal iste'mol xarajatlari	
			Nisbiy kambag'allik chegarasi	O'rtacha daromadning ulushi	Xalqaro miqyosda taqqoslanadigan chegaralar	Xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha mutlaq kambag'al, daromadi kuniga \$ 2,15 dan past
						XQP bo'yicha kuniga \$ 4,30 dan past daromadga ega kambag'allar
		Xarajat	Mutlaq kambag'allik chegarasi	Alohida mamlakatlar uchun mahalliy chegaralar milliy valyutada	Nisbatan past daromad (masalan: har bir mamlakatda o'rtacha daromadning 50% yoki 60% dan past)	Asosiy ehtiyojlar uchun xarajatlar
						Minimal iste'mol xarajatlari
				Xalqaro miqyosda taqqoslanadigan chegaralar	Vaqtning ma'lum bir nuqtasiga bog'liq bo'lgan nisbatan past daromad	XQP bo'yicha mutlaq kambag'al, daromadi kuniga \$ 2,15 dan past
					Nisbatan zaif kambag'allik chegarasi	

¹⁰ Manba: <https://www.worldbank.org/en/news/factsheet/2022/05/02/fact-sheet-an-adjustment-to-global-poverty-lines>

¹¹ Manba: "Неравенства доходов и детский бедность" Глава вторая лист 35. UNICEF office of Research 2022 г. https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/monee8/rus/chapt_2.pdf

¹² Manba: Muallif ishlanmasi

			Nisbiy kambag'allik chegarasi	O'rtacha daromadning ulushi	XQP bo'yicha kuniga \$ 4,30 dan past daromadga ega kambag'allar
					Nisbatan kam xarajatlar (masalan: har bir mamlakatda o'rtacha daromadning 50% yoki 60% dan past)
					Vaqtning ma'lum bir nuqtasiga bog'liq bo'lgan nisbatan past daromad
					Nisbatan zaif kambag'allik chegarasi
					Milliy yashash minimumi (iqlim sharoitlariga, qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi nisbatga, xususi va ijaraga olingan uy-joy va boshqalarga qarab).
Ko'p o'Ichovli					Ratsionning kaloriya tarkibi
					Deprivatsiya (mahrumlik)
					Ko'p o'Ichovli kambag'allik baholarini Xalqaro miqyosda solishtirish mumkin (xalqaro taqqoslashlar va BMTTD tomonidan chop etilgan inson rivojlanishi bo'yicha global hisobotlar uchun HRDB metodologiyasidan olingan)
					Kambag'allik va inson taraqqiyoti bo'yicha Oksford tashabbusi metodologiyasi bo'yicha olingan milliy baholar

Bunda tadqiqotlarimizga ko'ra, kambag'allik daromadning yetarli emasligi yoki zaruriy tovarlar va xizmatlarning kam iste'mol qilinishi, balki sifatsiz oziq-ovqat, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarining mavjud emasligi, normal uy-joy sharoitining yo'qligi va boshqalar bilan ham belgilanadi.

Kambag'allikni aniqlashning mashhur usullaridan biri Jeyms Foster, Joel Greer va Erik Torbek¹³ tomonidan taklif qilingan formulaga asoslanadi:

$$P_a = \frac{1}{H} \sum_{h=1}^q \left(\frac{Z_h - Y_h}{Z_h} \right)^a$$

P - bu yerda, kambag'allikning umumiy ko'rsatkichi;

a – kambag'allik ko'rsatkichi;

Z_h - bu h – individual oilaning kambag'allik chegarasi va unga qaram bo'lganlar;

q - kambag'al oilalar soni;

H - oilalarning umumiy soni.

Foster-Greer-Torbekke formulasi asosida kambag'allikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagicha guruhlanadi:

- kambag'allik koeffitsiyenti (a = 0);
- kambag'allik darajasi indeksi (a = 1)
- kambag'allikning jiddiylik indeksi (a = 2).

1) Kambag'allik koeffitsiyenti (oilalarning umumiy sonidagi kam ta'minlangan oilalarning ulushi):

¹³ Manba: James Foster; Joel Greer; Erik Thorbecke (28 May 2010). "The Foster–Greer–Thorbecke (FGT) poverty measures: 25 years later". *The Journal of Economic Inequality*. 8 (4): 491–524.

$$P_0 = \frac{1}{H} \sum_{h=1}^q \left(\frac{Z_h - Y_h}{Z_h} \right)^0$$

Kambag'allik koeffitsienti faqat kambag'allikni qanchalik darajada yoyilganligini tavsiflaydi va kambag'al oilalari daromadlari kambag'allik chegarasidan qanchalik past ekanligini baholashga imkon bermaydi.

2) Kambag'allik darajasi:

$$P_1 = \frac{1}{H} \sum_{h=1}^q \left(\frac{Z_h - Y_h}{Z_h} \right)^1$$

Kambag'allik darajasi indeksi so'rovda qatnashgan oilalarining daromadlari kambag'allik chegarasidan qanchalik past ekanligini baholash imkonini beradi.

3) Kambag'allikning jiddiylik indeksi:

$$P_2 = \frac{1}{H} \sum_{h=1}^q \left(\frac{Z_h - Y_h}{Z_h} \right)^2$$

Shular bilan bir qatorda, Nobel mukofoti laureyati Amartiya Sen ham ozi ishlab chiqqan **kambag'allikning sintetik ko'rsatkichlari** deb nomlangan o'z indeksini ishlab chiqqan¹⁴. Unga asosan quyidagi uchta omil o'zaro birlashib, va Sen formulasi asosida hisoblanadi:

- hodisaning tarqalishi darajasi;
- kambag'al insonlarning moddiy yetishmovchilik darajasi;
- ularning daromadlari bo'yicha tabaqalanish darajasi.

$$S = L \left(N + \frac{d}{P} G_p \right)$$

Bu yerda:

S - Sen indeksi,

L - kambag'allar ulushi,

N - o'rtacha daromad taqchilligining kambag'allik chegarasiga nisbati,

d - kambag'al oilalarining o'rtacha daromadi,

P - kambag'allik chegarasi,

G_p - Jini koeffitsiyenti, u daromadlarni taqsimlashda tengsizlik darajasini ko'rsatadi.

Yaqinda qabul qilingan "O'zbekistonni 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi" da aholi daromadlarini oshirish, turmush farovonligini yuksaltirish, kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, kichik biznesni rivojlantirish vazifalari belgilab berilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasi va uni bartaraf etish chora-tadbirlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari,

¹⁴ Sen, A. (2000). A Decade of Human Development. Journal of Human Development, 1(1), 17–23.
<https://doi.org/10.1080/14649880050008746>

hududlarda kambag'allik darajasi va o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekistonda kichik biznesni rivojlanish holati va uning kambag'allikni qisqartirishdagi imkoniyatlari tadqiq qilingan.

Bugungi kunda har qanday jismoniy shaxsning ish haqi kambag'allik darajasini kamaytirishga yoki uni oshirishga asosiy sabab bo'lib, u aholining moddiy ahvolini yaxshilashning muhim omili bo'lib, natijada aholi turmush farovonligi va turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu borada O'zbekistonda muntazam ravishda ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar miqdorlarini va ayrim xizmat turlari bo'yicha tariflarni oshirish bilan bog'liq qaror hamda farmonlar qabul qilinmoqda¹⁵.

Mintaqada o'rtacha nominal ish haqi o'zgarish dinamikasi qararak, bu ko'rsatkich 2021-yilda 2010-yilga nisbatan 8.1 barobardan ko'proq oshib, 2,662 mln so'mga etganligini ko'rish mumkin. Mamlakatimizda 2010-yilda ishsizlik darajasi 5,4 foizni tashkil etgan holda 2022-yilga kelib 8,9 foizga teng bo'lgan. Aholi farovonlik darajasi esa shu davrda 70,7 foizdan 73,7 foizga, bandlik darajasi 66,9 foizdan 67,2 foizga etgan.


Kichik biznesni rivojlantirish, ish o'rinlarini yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kambag'allikka qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Tarkibiy ishsizlik sharoitida qo'shilgan qiymat yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va bu jarayonda mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha davlat, tarmoq, hududiy dasturlarini ishlab chiqish juda muhimdir. "Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 1,2 milliondan ziyod yangi ish o'rnini qishloq xo'jaligida yuqori hosildorlikka ega bo'lgan meva-sabzavot va issiqxona sektorlarida yaratilishi mumkin¹⁶". O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning boy, ilg'or tajribalarini e'tiborga olgan holda, samarali mikromoliyalash tizimini yaratish amalga oshirilmoqda.

Tahlillarimizga ko'ra, kambag'allikni ko'rinishi va davomiyligiga ko'ra ishlovchi kambag'allar, ishsiz kambag'allar ko'p boqimandali kambag'allar, doimiy kambag'allar, vaqtinchalik kambag'allarga ajratish mumkin. Kambag'allarni noiloj va ixtiyoriy kambag'allarga ajratish maqsadga muvofiq. Noiloj kambag'allar ular majburan kambag'al bo'lganlardir. Iqtisodiy va ijtimoiy sabablar insonni kambag'alga aylantiradi. Iqtisodiy adabiyotda aholi kambag'alligini baholash va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan qo'yilgan me'yorlar asosida kambag'allikni aniqlash yondashuvlari mavjud. Ilmiy yondashuvlarning aksariyati aholining kunlik daromadi, iste'mol qilinadigan oziq-ovqatning minimal miqdori, oylik daromadlari asosida kambag'allikni aniqlash bilan bir-biridan farq qiladi.

¹⁵ [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-138-son. 20.05.2022 y.](#); [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-128-son. 30.04.2022 y.](#); [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-6279-son. 17.08.2021 y.](#); [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, PQ-4938-son. 30.12.2020 y.](#); [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-6039-son 30.07.2020 y.](#); [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, PQ-4555-son. 30.12.2019 y.](#); [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5723-son 21.05.2019 y.](#); [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5553-son 13.10.2018 y.](#); [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5469-son 02.07.2018 y.](#); [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-4751-son 26.08.2015 y.](#);

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 1-ilova,37 maqsad.

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini tahlil qilishda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM miqdori va aholining o‘shish sur‘atlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. 2010-2022-yillarda barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlari tufayli YaIM hajmining keskin ko‘payishi aholi umumiy sonida kambag‘al aholi qatlami ulushini qisqartirishga olib kelgan (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIM miqdori va kambag‘allik darajasi¹⁷.

Kambag‘allik darajasi mamlakatlardagi davlatning daromad siyosatiga bog‘liq bo‘ladi. Qanchalik mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lsa, shunchalik daromadlarni aholini ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish uchun qayta taqsimlab kambag‘alikni kamaytirish mumkin. Ushbu ijtimoiy siyosat rivojlangan mamlakatlarda amalga oshiriladi.


Dissertatsiyada kambag‘allikni o‘rganish uchun asosiy ma‘lumot manbai statistik ma‘lumotlar hamda hududlarda kichik biznesni rivojlanganlik darajasi, ishbilarmonlik holati va mahalliy tashabbuskorlik hisobga olingan. Shubhasiz, kambag‘allikka respublikaning iqtisodiy ahvolini, aholining turmush darajasini, xususan, uning to‘lovga layoqatli talabini, mehnat bozorida vaziyatni, aholining ijtimoiy holatini va mamlakat aholisi darajasini tavsiflovchi omillar katta ta‘sir ko‘rsatadi

So‘nggi paytlarda aholining kambag‘allik darajasining oshishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillardan biri bu aholining aksariyat qismi daromadlarining kamayishi va narxlar darajasining oshishi hisoblanadi. Shuning uchun, o‘z tadqiqotlarimizda o‘rtacha oylik pensiya, eng kam ish haqi va iste‘mol narxlari indeksi ko‘rsatkichlari ham tahlil qilindi. 2007-2022-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlarini kambag‘allikka ta‘sir qiluvchi oltita ko‘rsatkichining qiymatlari asosida dastlabki ma‘lumotlar olingan. O‘zbekiston Respublikasida 2007-yilda eng kam ish haqi 18,6 ming so‘m, o‘rtacha oylik pensiya miqdori 67,3 ming so‘mga teng bo‘lib, ishsizlik darajasi 5,0 % va iste‘mol narxlari indeksi 6,8 %ga tengligi 2007-yilda aholi turmush farovonligi darajasini past bo‘lganligini shu bilan bir qatorda, jadval malumotlariga 2022-yilda O‘zbekiston

¹⁷ <http://stat.uz> – Davlat Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Respublikasida eng kam ish haqi 822,0 ming so‘mga¹⁸, iste‘mol narxlari indeksi 2006-yilga nisbatan 5,5 %ga oshib 12,3%ga va bu davrga kelib kambag‘allik darajasini bazis yilga nisbatan 9,6 foizga kamayganligini ko‘rish mumkin.

Bu borada Xorazm viloyatda ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. kichik biznes subyektlari sonini oshishi o‘z navbatida Xorazm viloyatining iqtisodiyotda bandlar sonini oshishiga olib keldi. Xususan, 2010-yilda Xorazm viloyatining iqtisodiyotda bandlar soni 642 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda 2010-yilga nisbatan 164,4 ming nafarga oshib 806,4 mingtaga etdi. Bu esa aholining bandlik darajasini o‘sishi viloyatda aholi daromadini oshishiga va o‘z navbatida aholining kambag‘allik darajasini kamaytirishga hissa qo‘shadi. Xorazm viloyatining kambag‘allik (kam ta‘minlangan) darajasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, respublika miqyosida solishtirganda farqli jihatlarini ko‘rish mumkin (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining kambag‘allik (kam ta‘minlanganlik) darajasi¹⁹

6-rasmda keltirilgan ma‘lumotlarga asosan, 2000-yilda O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining kambag‘allik (kam ta‘minlangan) darajasi mos ravishda 28,8% va 37,3%ni tashkil etgan. Bu esa o‘z navbatida Xorazm viloyatida kambag‘allik darajasi Respublika darajasidan 8,8% yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. Bunga sabab, kuzatilayotgan davrda Xorazm viloyatida avvalambor, ishsizlikning Respublika bo‘yicha jami darajasi (0,4%)dan (Xorazm viloyati 0,5%) yuqoriligi, real ish haqining Respublika miqyosidan 7,3% kamligi (2000-yilda Xorazm viloyatida 301,9 ming so‘mga teng bo‘lgan) deb qarash mumkin.

Dissertatsiyaning **“Xorazm viloyatida kichik biznesni rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini takomillashtirishni ustuvor yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida Xorazm viloyatining hududlarida kambag‘allik darajasini qisqartirish dasturini baholash, mintaqa hududlarida tadbirkorlik va uni rolini oshirish omillari, Xorazm viloyati hududlarida kichik biznesni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini takomillashtirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyada Xorazm viloyatida tumanlar kesimida 2023-yilda kambag‘allik darajasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlil qilindi (2-jadval).

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 21-may, PF-5723-son Farmoni.

¹⁹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari

2-jadval

Xorazm viloyati hududlarida 2021-2022-yillar va 2023-yilga prognoz qilinayotgan kambagal aholi ulushi (foizda)²⁰

№	Hududlar nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil yakuni bo'yicha prognoz
1	Urganch shahri	21,1	17,4	12,1
2	Xiva shahri	11,9	9,8	7,2
3	Bog'ot tumani	23,9	19,6	14,1
4	Gurlan tumani	27,3	23,3	16,9
5	Qo'shko'pir tumani	24,9	20,3	14,7
6	Urganch tumani	29,9	26,5	19,5
7	Hazorasp tumani	17,4	14,3	10,3
8	Xonqa tumani	17,6	14,5	10,5
9	Xiva tumani	24,6	20,3	14,7
10	Shovot tumani	25,8	20,8	15,1
11	Yangiariq tumani	26,2	21,6	15,6
12	Yangibozoror tumani	29,7	25,4	18,3
13	Tuproqqal'a tumani	22,0	18,1	13,0
	Jami	23,4	19,2	14,0

Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra, viloyat hududlarida kambag'allikning eng yuqori ko'rsatkich 2022-yilda Urganch, Yangibozoror, Yangiariq tumanlari bo'lgan bo'sa nisbatan past ko'rsatkich Xiva shahri, Hazorasp va Xonqa tumanlaridadir. Xorazm viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) mamlakat yalpi ichki mahsulotining 5,5 foizini, aholi jon boshiga hisoblaganda esa o'rtacha mamlakat darajasining 67,8 foizini tashkil qiladi. YaHM tarkibida keyingi yillarda agrar sektor ulushining qisqarishi, ayni vaqtda sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi ko'payishiga erishildi. Ammo, jami xizmatlarning YaHM dagi ulushi 43,1 foiz bo'lgani holda, mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan (52%) past darajada qolmoqda.

Xorazm viloyatida ish haqi va kambag'allik darajasini dinamikasi tahlil qilindi (3-jadval)

3-jadval


Xorazm viloyatining o'rtacha nominal ish haqi va kambag'allik darajasi ko'rsatkichlari²¹

Ko'rsatkichlar	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2022-y.	2022-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarishi (-, +)
O'rtacha nominal ish haqi	321790,8	952914,2	2227141,2	3204301,4	2882510,6
Kambag'allik darajasi	20,6	14,3	13,0	19,2	-1,4

²⁰ Xorazm viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi


²¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2010-yilda Xorazm viloyatining oʻrtacha nominal ish haqi va kambagʻallik darajasi koʻrsatkichlari mos ravishda 321,8 ming soʻm va 20,6 foizga teng boʻlgan. 2022-yilga kelib oʻrtacha nominal ish haqi 2010-yilga nisbatan qariyb 9 barobarga oshib 2882,5 ming soʻmga va kambagʻallik darajasi 1,4 foizga kamayib 19,2 foizni tashkil etgan. Xorazm viloyatining YAHM oʻzgarishiga eʼtibor qaratilsa, 2010-yilda 2888,6 mlrd. soʻmga teng boʻlib, bu davrda iqtisodiyotda bandlar soni 606,7 ming nafarni tashkil etgan. Yalpi hududiy mahsulot hajmining oʻsishi iqtisodiyotda bandlar sonini oshish bilan toʻgʻri mutanosiblikda bogʻlangan (3-rasm).



3-rasm. Xorazm viloyatining YAHM hajmi va iqtisodiyotda bandlar sonini oʻzgarishi²²

Dissertatsiyada Oʻzbekiston mintaqalarida kichik biznesni rivojlantirish asosida kambagʻallikni qisqartirish dasturini ishlab chiqish bosqichlarini takomillashtirilgan tizimi ishlab chiqildi (4-rasm).



4-rasm. Mintaqalarda kichik biznesni rivojlantirish asosida kambagʻallikni qisqartirish dasturini ishlab chiqish bosqichlarini takomillashtirilgan tizimi²³

^{22,3} Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Statistika Qoʻmitasi maʼlumotlari

²³ Manba: Muallif ishlanmasi.

Shundan kelib chiqib, kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes rivojlanishining strategik vazifalari sifatida quyidagilarni muhim deb hisoblaymiz:

- eng muhim ustuvor yo'nalishlar rivojini rag'batlantirish;
- ishbirarmonlik salohiyatiga qulayliklar yaratish;
- tarmoq va hudud rivoji uchun zarur, ammo rentabelligi past bo'lgan kichik biznes subektlarni qo'llab-quvvatlash;
- yuqori foyda keltiradigan bo'shliqni egallashga ixtisoslashuv;
- yirik biznes korxonalarini bilan kooperatsiyalashuv;
- iste'molchilar talabiga moslashuv;
- ishbirarmonlik muhitini mustahkamlash;
- mahalliy tashabbuskorlikni yaxshilash kabilar.

Xorazm viloyatida kichik biznesni iqtisodiyot tarmoqlaridagi hajmi ham yildan-yilga oshib bormoqda. Kichik biznes subyektlarini sanoat salohiyati yuksalib, 2010-yilda 143,9 mlrd. so'mdan 2022-yilda 2956,0 mlrd. so'mga yetgan, qurilish sohasiga 226,1 mlrd. so'mdan 4373,8 mlrd. so'mgacha, xizmatlar sohasida 497,5 mlrd. so'mdan 6396,6 mlrd. so'mga yetgan Xorazm viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes ulushiga nazar tashlasak, uni YaHM dagi ulushi yildan-yilga oshib, 2022-yilda 71,6 foizga yetgan. Shu borada kichik biznesni qurilishda 83,3 foizdan 89,4 foizga, aholi bandligida 78,0 foizga 83,6 foizga yetgan (4-jadval).


4-jadval

